O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat universiteti ilmiy
ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektori, prof., K.A.Samiyev

# 09.00.04. – “IJTIMOIY FALSAFA” IXTISOSLIGI BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

BUXORO - 2025

Сканировано с CamScanner

**Tuzuvchilar:** falsafa fanlari doktori, professor Salomova H.Yu.
falsafa fanlari doktori, professor Namozov B.B.
f.f. f. d. (PhD), dots. B.B.Dehqonov

**Taqrizchilar:** f.f.d., prof. E.Zoirov,
f.f.f.d (PhD), dots. Qodirov D.H.

Ushbu dastur "Islom tarixi va manvashunosligi, falsafa" kafedrasining 2025 yil 25-oktabr 8-son bo'lib o'tgan majlisida tasdiqlangan.

09.00.04. – "Ijtimoiy falsafa" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun ushbu dastur Universitet kengashida muhokama etilgan va tasdiqlangan. 2025-yil 28-oktabr 3-son bayoni.

Сканировано с CamScanner

# KIRISH

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihoni ilmiy pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy hodisalarni yaxlit, bir butun hodisa sifatida tadqiq etish fanning maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ijtimoiy hodisalarning rivojlanishini, jamiyat hayoti va taraqqiyoti, inson kamolotidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish kabi vazifalarni bajarilishi bilan bog'liqdir. 09.00.04-Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha to'zilgan malakaviy imtihoni dasturi umumiy falsafa fanining bir tarmog'i bo'lib, ilmiy xodimni yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Imtihon topshiruvchi tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, ijtimoiy falsafaning boshqa ijtimoiy siyosiy fanlar bilan bog'liq, ilmiy-metodologik masalalardan xabardor bo'lishi, shu bilan birga, u o'z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal etishda foydalana bilishi lozim.

Dasturning maqsadi va ahamiyati – tadqiqotchilarda ijtimoiy falsafa fani mohiyati, shakllanish bosqichlari, hozirgi holati, jamiyat hayotidagi o'rni, jamiyat va inson zamon talablari asosida tahlil etib, globallashuv sharoitida ma'naviy yangilanish va o'zlikni anglash jarayonlari haqida bilim berishdan iborat.

Ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari, qonun va kategoriyalari tizimi xususiyatlari. Fan maqomini belgilovchi tamoyillar va xususiyatlar. Ijtimoiy falsafa paradigmalarining o'zgarishi. Jamiyat va insonning mohiyati, xususiyatlari, rivojlanish omillari, qonuniyatlari, istiqboli. Jamiyatning vujudga kelishi, taraqqiyot bosqichlari. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi, moddiy va ma'naviy hayoti, ommaviy va siyosiy tashkilotlarning rivojlanib, o'zgarib borishi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitida jamiyat va inson falsafasini o'rganish zaruriyati va ahamiyati. Ijtimoiy falsafaning vazifalari: gnoseologik, nazariy metodologik; pedagogik-didaktik; prognozlashtirish, modellashtirish; tashkillashtirish-boshqarish va boshqalar.

Ijtimoiy ong - jamiyat hayotida muayyan ijtimoiy guruhlarga xos qarashlar, g'oyalar tizimi. Ijtimoiy ong tizimining ijtimoiy borliq bilan uzviy bog'liklig'i.

Сканировано с CamScanner

Ijtimoiy ong shakllarining vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlari. Ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, uning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga qudratli ta'sir ko'rsatishi. Falsafa ijtimoiy ongning o'ziga xos shakli. Diniy ong va uning xususiyatlari. Axloqiy va xuquqiy ongning o'zaro munosabati. Individual ongning Ijtimoiy ongga bog'liqligi. Shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy ongning ahamiyati.

Jamiyat – tabiatning tarkibiy qismi. Jamiyatning tarixiy rivojlanish shakllari, ularning mohiyati va xususiyatlari. Jamiyatning evolyusion va revolyusion taraqqiyoti modellari . Urug', qabila, elat, millatning asosiy belgilari. Jamiyatning yaxlit ijtimoiy birligini taminlash omillari va uning o'zgarish dinamikasi. Kishilik jamiyati tabiat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Jamiyat – odamlar va ular uyushmalari faoliyatining maxsuli. Inson – ijtimoiy munosabatlar ob'yekti va sub'yekti sifatida. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy ma'naviy hayoti . Iqtisodiyot va ma'naviyatning uzviy bog'liqligi ijtimoiy taraqqiyot va inson omilining oshib borish qonuniyati. Bugungi kunda O'zbekiston jamiyati taraqqiyotining strategiyasi.

Tabiat va jamiyat, ularning o'zaro bog'liqligi va bir biriga ta'siri. Tabiiy muhit, jamiyat hayoti va rivojlanishining doimiy va zaruriy shartidir. Aholi tarixiy jarayonlarining sub'yekti. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy omillari. Tabiat va jamiyat munosabatlari. Insonning tabiatga tasiri ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanish darajasiga, ijtimoiy tuzum xarakteriga, jamiyat va kishilar kamolot darajasiga bog'liqligi. Mustaqil O'zbekistonda jamiyat rivojlanishida tabiiy va ijtimoy omillar rolining oshib borishi. Geografik determinizm va uning ijtimoiy falsafiy tahlili.

Moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqarish tushunchasi, jamiyat bilan tabiatning bir biriga tasir etish jarayoni . Ishlab chiqarish kuchlarining tabiatga ta'siri va uning oqibatlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usullari. Inson jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Ilmiy texnika revolyutsiyasi va uning mehnat unumdorligi o'sishiga ta'siri. Ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab

Сканировано с CamScanner

chiqarish munosabatlaring o'zaro bog'liqligi. Fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanish jarayoni, ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi. Mustaqillik sharoitida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlantirish omillari.

"Ma'naviy hayot" tushunchasi. Ma'naviy salohiyat jamiyat moddiy iqtisodiy hayotining asosi. Jamiyat ma'naviy hayotida tarixiy me'rosga vorislik va yangilanish muammolari. Ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish jamiyat ma'naviy hayotining takomillashtirish omili. Ma'naviy integratsiyaning ijtimoiy falsafiy masalalari. Ma'naviy tahdidlar va ularning tahlili. "Ommaviy madaniyat" tahlili, uni bartaraf etish muammolari. Ma'naviy madaniy tushunchaning falsafiy mazmuni. Milliy urf-odat va an'analarning ma'naviy madaniyat yuksalishida ahamiyati.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish - jamiyat rivojining zaruriy sharti. Moddiy ehtiyojlarini qondirish va manfaatdorlik jamiyat iqtisodiy hayotining bosh maqsadi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Vazirlar Maxkamasi Kengashining qo'shma majlisidagi nutqi asosida (2017 yil 16 yanvar). Jamiyat iqtisodiy va sotsial taraqqiyotida mehnatning roli. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mulkchilikning muqobil shakllarini vujudga keltirish zarurligi. Mulk va mehnatga munosabat. Iqtisodiyot va madaniyatning uzviy bog'liqligi. Raqobat – bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy hayotning zarur sharti. O'zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlar. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.

Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Demokratik jamiyatda nodavlat tashkilotlarning tutgan o'rni. Siyosiy partiya, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlar demokratik jamiyat siyosiy hayotining tarkibiy qismi. Demokratik qadriyatlarni qaror toptirish siyosiy islohotlarning bosh maqsadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish - islohotlar jarayoning strategik

Сканировано с CamScanner

maqsadi. Konstitutsiya – demokratik jamiyatning siyosiy va huquqiy hayotini takominllashtirishning muhim vositasi. Siyosat va huquqiy madaniyatni takominllashtirishda jamoatchilik fikri xamda ta'lim - tarbiya institutlarining urni.

"Sosial hayot" tushunchasi. Jamiyat hayotining gorizontal kesimi: sinflar, sotsal guruhlar, ijtimoiy qatlamlar. Mobillik - ochiq, demokratik jamiyatning sotsial hayotiga xos xususiyat va uning yo'nalishlari. Jamiyat hayotining vertikal kesmi: sotsial stratifikatsiya, mulkka egalik va mulksizlik. Elita - demokratik jamiyat sotsial tarkibining muhim elementi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlikni ta'minlash muammolari. Kuchli ijtimoiy himoya – o'tish davrining asosiy tamoyillaridan biri.

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasi. Fuqarolik jamiyati barpo etish – jahon ijtimoiy hayotining bosh yo'nalishi. Fuqarolik jamiyatida davlatning o'rni va roli. O'zbekistonda huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishining asosiy vazifalari. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda siyosiy va huquqiy madaniyatni takomillashtirish zarurligi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etishning o'ziga xos xususiyatlari: yutuqlar, imkoniyatlar va muammolar. Kuchli davlatning kuchli jamiyatga o'tish tamoyili.

Ijtimoiy sheriklik tushunchasi. Ijtimoiy sheriklikning soxalari. Ijtimoiy sheriklik turlari. Ijtimoiy sheriklik tamoyillari. Ijtimoiy sheriklik qonuniy asoslari, tomonlarning kafolatlari. Fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda xalqaro va xorijiy tajribalar.

Jamoatchilik sub'yektlari tushunchalari. Jamoatchilik nazorati insituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan qonun hujjatlarinig ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik insitutlari nazoratini amalga oshirishning shaffof va samarali huquqiy mexanizmi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar hamda kasaba uyushmalari - jamoatchilik sub'yektlari sifatidagi faoliyati. Ommaviy axborot vositalari esa davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi mustahkam aloqa o'rnatuvchi, ma'lumotlar ochiqligini ta'minlovchi

Сканировано с CamScanner

vosita sifatida faoliyati.

Sharq, va G'arb ijtimoiy falsafasida insonning mohiyati to'g'risidagi muqobil ta'limotlar. Inson – biosotsial mavjudot. Inson mohiyatining ko'p o'lchamligi. Ijtimoiy antropologiyaning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Inson borligi. Insonning kelib chiqishi va inson borlig'i haqidagi zamonaviy ta'limotlar.

Shaxs - inson sifati va fazilatlari. «Individ» «shaxs» va «individuallik» tushunchalari, ularning uzviy bog'liqligi va o'ziga xosligi. Shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning roli muammosi. Shaxs shakllanishida oila, mahalla, mehnat jamoalari va ta'lim- tarbiya muasasalarining hamkorligi shaxs dunyoqarashining shakillanishi va rivojlanishida jamoat tashkilotlari va o'z o'zini boshqarish tiziminig funksional mohiyati.

Ijtimoiy falsafada erkinlik va zaruriyat masalasi. Shaxs erkinligi tarixiy zaruriyatni anglash, ma'naviy kamolotga erishish imkoniyati. Shaxs tiplari. «Shaxs sifatini» belgilovchi xususiyatlar. Shaxs erkinligi va ma'suliyatining uzviy bog'liqligi. Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizim. Shaxs faolligi mezonlari va yo'nalishlari. Shaxs erkinligi va tashabbuskorligi va mustaqilligini kuchaytirish - fuqarolik jamiyati shakllanishinig muhim omili.

Hozirgi zamon umumbashariy muammolarining mohiyati va xususiyatlari. Muammolarning turkumlashtirish yo'nalishlari. Yer yo'zida tinchlikni saqlash, yadroviy urushni oldini olish xalqaro xavfsizlikni ta'minlash muammosi.

Butun dunyoda tabiat boyliklarini asrash, ulardan oqilona foydalanish, tabiatni muxofaza qilish, ekologik hal qilish, jahonda yuqumli kasalliklarning tarqalib ketishini oldini olish. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordamni kuchaytirish. Xalqaro terrorizm, ekstremizm, korrupsiyaga qarshi kurash. Umumbashariy muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish. Imkoniyat va zaruriyatni oshib borishi. Umumbashariy muamolarni hal qilishda O'zbekistan Respublikasining hissasining ortib borishi.

Ijtimoiy falsafada «model» tushunchasi va uning mohiyati, mazmuni, ijtimoiy harakatlarni bilishda modellashtrish. Jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining - ijtimoiy falsafiy masalalari. Jaxon sivilizatsiyasini shakllantirishning muhim asoslari. Sharq

Сканировано с CamScanner

va G'arb sivilizatsiyalari ilg'or tomonlari va yutuqlarining uyg'unlashuvi natijasi. O'zbekistan ijtimoiy tarakiyotining o'ziga xosligi. Tarakiyotning **«O'zbek modeli»** . O'zbekistonda huquqiy davlat shakllanishining huquqiy asoslari. Ijtimoiy rivojlanishnig tadrijiyligi, milliy mentalitet va saloxiyati mosligi.

Ma'naviy-axloqiy ijtimoiy taxdidlarning kelib chiqish sabablari. Taxdidlarning turlari va unga qarshi choralar xakida. O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy tahdidlarga qarshi kurash bo'yicha olib borilayotgan chora tadbirlar. Ma'naviy axloqiy qadryatlarni asrab-avaylash, jamiyat ma'naviy-axloqiy sog'lomligini kafolati. «Ommaviy madaniyat» tahdidi va globallashuv xususiyatlari. OAV va axborot texnologiyalarining imkoniyatlari. Yoshlarni Vatanga muhabbat, boy tarixga ega ota bobolarning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash qalbi va ongida kurashning samarali usuli sifatida. Xalqaro terrorizm, ekstrezim, korrupsiyaga qarshi kurash.

Milliy goya va ma'naviy hayot. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi (I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari asosida).

**Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun sinov imtihonining javoblarini baholash umumiy mezonlari**

| Ball | Bilim darajasi |
|---|---|
| 1 | 2 |
| 86-100 | Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa |
| 71-85 | O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa |
| 55-70 | Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa |

Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| 0-54 | Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni talaba javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa |

**Izoh:** Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari bo'yicha topshiriladigan birinchi fan (mutaxassislik yoki chet tili) umumiy balining 50% dan kam ball to'plagan talabgorlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

**09.00.04. – "Ijtimoiy falsafa" ixtisosligi bo'yicha baholash mezonlari**

| № | Umumiy ball | Tayanch doktoantura (PhD)ga kiruvchining bilim darajasi | Xususiy ball |
|---|---|---|---|
| | | **Savol nazariy bo'lsa** | |
| 1 | 18-28 | Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, demokratik islohotlar va jarayonlarning mazmunan mohiyati to'liq ochib berilgan; | 8-10 |
| | | O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tadbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi; | 6-8 |
| | | Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; | 4-6 |
| | | Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan. | 0-4 |
| | | | 18-28 |
| 2 | 13-19 | Materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob bergan, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yagan, faktlarga to'g'ri baho bera olgan, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha olgan, | 6-8<br>5-6 |

Сканировано с CamScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Javobda doktorantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Ijodiy yondoshuv mavjud;<br>Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega. | 2-4<br><br>0-1 |
| | | | 13-19 |
| 3 | 4-8 | Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan;<br>Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatiladi;<br>Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan;<br>Tasavvurga ega, lekin tahlil yo'q. | 2-3<br>1-2<br>1-2<br>0-1 |
| | | | 4-8 |
| 4 | 0-3 | Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas;<br>Umuman javob yozilmagan;<br>Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan;<br>O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan | 0-3 |
| | | **Savol amaliy (masala yechish)bo'lsa** | |
| 1 | 14-18 | Masalani yechishda ilmiy - ijodiy yondoshgan;<br>Amaliy topshiriq tahlili va ularning amaliyotga tadbiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr va mulohazalar mavjud, amaliy topshiriq to'liq bajarilgan;<br>Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega;<br>Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan; | 5-6<br>5-5<br>4-5<br>0-2 |

Сканировано с CamScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | 14-18 |
| 2 | 9-13 | Javob to'g'ri yozilgan, ammo noaniqliklar, hisob-kitoblarda chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, amaliy topshiriq to'liq bajarilmagan lekin yechimiga ilmiy-ijodiy yondashilgan;<br>Javobda PhD doktoanturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;<br>Ijodiy yondoshuv mavjud;<br>Amaliy topshiriqni tahlil qilish qobiliyatiga ega; | 5-6<br>3-4<br>1-2<br>0-1 |
| | | | 9-13 |
| 3 | 4-8 | Masalaning mohiyati tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan, amaliy topshiriq to'liq bajarilmagan;<br>Mushohada bayonida va topshiriqni yechishda fikr tarqoqligi kuzatiladi;<br>Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan.<br>Topshiriqni yoritishda va uni amaliy jihatdan asoslashda tasavvurga ega, ammo tahlil va xulosa yo'q; | 3-4<br>1-2<br>1-1<br>0-1 |

## Adabiyotlar ro'yxati

*Rasmiy hujjatlar va manbalar.*


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 40.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent: O'zbekiston, 1997.


Сканировано с CamScanner

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga muljallangan iktisodiy dasturi» 2017-202 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.O‘zbekiston Respubliyepsi Prezidenti lavozimiga kirish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy maxlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutki. /Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent "O‘zbekiston", 2016. -56 b.

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik kridasi bulishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariva 2017 yilga muljallangan iktisodiy dasturning eng muxim ustivor yunalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017 yil 14 yanvar - Toshkent "O‘zbekiston" 2017-104 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi/ O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kabul kilinganligining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi 07-12-2016-Toshkent "O‘zbekiston" 2017 48 b.

10.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. - Toshkent "O‘zbekiston" 2017 491 b.

13. "O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha X,arakatlar strategiyasi to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- son Farmoni. O‘zbekistan Respublikasi Krnun xujjatlari tuplami.2017 yil 6-son,70-modda,20-son ,354-modda,23-son,448 modda,37-son 982-modda.

14. "O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlaro konsepsiyasini tasdiqdash to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PF-5185 Farmoni."Xalk so‘zi" gazetasining 2017 yil 9 sentyabrdagi 180 (6874)soni

15.Karimov I.A. To‘la asarlar to‘plami. 1-23 jildlar. Toshkent: O‘zbekiston,

Сканировано с CamScanner

1996-2015.

16.Karimov i.A. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch». Toshkent: O'zbekiston, 2014. - Toshkent Ma'naviyat, 2008.

17.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O'zbekiston, 2011. - 440

*Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:*

1. Osnovы filosofii :Uchebnik dlya vыsshix uchebnых zavedeniy / Pod red.M.A.Axmedovoy i V.S.Xana. - T., 2004. -496.

1. Ijtimoiy falsafa. O'quv uslubiy kullanma. - T .: TDPU, 2008.

2. Tuychiyev B.T., Ziyavutdinova X. Osnovы sotsialnoy filosofii. - T., 2009.

3. Tuychiyev B.T. Sotsialnaya filosofiya. -Tashkent: Universitet, 2015.

4. Falsafa (Ma'ruza matnlari). -T., 2000.

5. Muminov I.M.O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy tafakkur tarixidan. -T.: «Fan», 1994.

6. Falsafa. Komusiy lugat./Mas'ul muxarrir K.N.Nazarov -T., 2004.

7. Falsafa : ensiklopedik lugat. Mas'ul muxarrir M.N.Abdullayeva. - T., 2010.

8. Ma'naviyat: Asosiy tushunchalar izoxli lug'ati //Mas'ul muxarrir K.N.Nazarov .-T., 2009.-7606.

9. O'zbekiston falsafasi tarixi. 1-jild. -T.: UzMU, 2013.

10. Yu.Barulin S. Sotsialnaya filosofiya.M., 1997.

11. Momdjyan K.X. Vvedeniye v sotsialnuyu filosofiyu. -M., 1996.

12.Sprikin A.G. Filosofiya. -M., 2000.

13.Krapivenskiy A. Sotsialnaya filosofiya. -M., 1998.

*Ilmiy monografiya, risola va makolalar:*

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -T., 1994.

2. Abduraximov B.Tarixiy meros milliy istiklol mafkurasining poydevori.// Moziydan sado, 2000. №3. -2-5-6.

3. Alikulov Xaydar . Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. - T.,

Сканировано с CamScanner

2009.

4. Amir Temur. Tuzuklar. - Toshkent, 1993.

5. A'zamxujayev S. Turkiston muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik kurilish tajribasi. - T.: Ma'naviyat, 2000. -168 b.

6. Axmedov B. Amir Temur. - Toshkent , 1993.

7. Axmedshina F. Tarixiy xotira - xalk ma'naviyatining asosi.// Mulokrt, 2000. №3-21-226.

8. Beruniy. Asarlar. 6 tomlik. T., 1973.

9. Bromley Yu.V. Ocherki teorii etnosa. -M.: Nauka, 1993. 412s.

10. Yu.Bobojonova N.Totalitar tuzumning kam sonli millatlarga nisbatan olib borgan siyosati (1930-1960 yillar) .//Ijtimoiy fikr. Inson xukukdari. №3 (27), 2004, 106-111 b.

11.Jaxon falsafasi. - Toshkent: Shark; 2004.

12.Zotov A.F. Zapadnaya filosofiya XX veka. - M., 2001.

13.Jumaboyev I. O'zbekistonda falsafiy va axloqiy fikrlar tarakkiyoti tarixidan. - Toshkent, 1997.

14. Jurayev N. Tarix falsafasi : tushuncha, mohiyat va siyosat. -T.: Ma'naviyat, 1996. -192 b.

15.Jurayev N. Milliy istikdol goyasi va tarixni anglash.// Jamiyat va boshkaruv, 2003. №2. -5-76.

16.3iyoyeva D. Soxta va chin haqiqatlar yoxud tariximizning ukilmagan saxifalari xususida. // Tafakkur , 1998. №3. -64-69 b.

17. Ibn Sina. Izbrannыye filosofskiye proizvedeniya.M., 1980.

18.Istoriya filosofii.-M.: 1998.

19.Kadыrova Z.R., Karimov B.R., Sharipov A.D., Aliyeva V.R. Tolerantnost, globolizatsiya i sotsialnoye razvitiye. Tashkent, 2011. 160s.

20.Kamyu A. Buntuyuшiy chelovek. -M.: 1992.

21.Karimov B.R. Millat, inson va til : tarakkiyot muammolari. - Karshi: Nasaf, 2003.-1316.

22.Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya

Сканировано с CamScanner

sivilizatsiya./Otv. Redaktorы P.K.Xabibullayev i A.F.Fayzullayev . -T.: Fan, 2000. -416s

23.Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T., 2001.

24.Madayev Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T., 2008.

25.Muminov I.M. Amir Temurning U rta Osiyo tarixida tutgan urni va roli Toshkent, 1993.

26.Muminov A.G. Axborotlashgan jamiyat. T., 2014.

27.Mir filosofii. V 2-x tomax. -M., 1989.

28.Milliy ong va milliy gurur dialektikasi.// Iktisod va xisobot, 1997. 11-12.- 63-64 6.

29.Mustabid tuzumning Uzbukiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shoxidligi va saboklari (1865-1990). /D.Alimova tax.os./UzRFA Tarix instituti, -T.: Shark, 2000. -4326.

30.Nitsshe F.Sochineniya v dvux tomax. -M.: Mысl, 1990.

31.Odilov K. Ijtimoiy tarbiya va milliy ong.//Xalk ta'limi, 1997. №5. - 24-30 b.`

32.0tamurodov S. Globallashuv va millat. T., 2008. -2046.

ZZ.Otamurodov S. Talaba yoshlarning milliy uzligini anglashi. //Ijtimoiy fikr. Inson xukuklari, 2000 №2 (9-10). -155-159 b.

34.Rajabov K., Xaydarov M. Turkiston tarixi. - T.: Universitet, 2002. -166.

35.Rassel B.Mudrost Zapada. M. 1998

Z6.Ruzmatova G. Freydizm falsafasida inson masalasi. - Toshkent, 2009.

37.Ruzmatova G. Zamonaviy Garb falsafasining muammo va yunalishlari. Toshkent.: Universitet, 2013. -160 b.

38.Saifnazarova I.S. Iktisodiy va ma'naviy manfaatlar uygunligi va barkamol inson tarbiyasi . -T.:Yangi asr avlodi , 2002. -19 6.

39.Sartr J.P. Filosofskiye pesы. - M.: 1997

40.Skirbek G., Gile N. Falsafa tarixi . - Toshkent: Shark;, 2002.

41.Sorokin P.A. Chelovek, sivilizatsiya , obщyestvo. M., 1992

42.Sulaymonova F. Sharq va G'arb . - Toshkent: Shark, ,1997yu

Сканировано с CamScanner

43.Tuychiyev B.T. Filosofiya , psixologiya , pravosoznaniye : problemы vzaimosvyazi.// Xukuk., Pravo, a\u. 2000 / №2

44.Tuychiyev B.T. Xukuk. falsafasi. T., 2004.

45.Fromm e. Imet ili bыt. - M.: 1990.

46.Farobiy Fozil odamlar shaxri. T., 1993

47.Xanazarov K.X. K probleme filosofii yazыka. T .: O'zbekistan , 2007, - 136.

48. Xanazarov K.X. Globallashuv va til falsafasi . Toshkent : Falsafa va xuquq instituti nashriyoti, 2009. 136 6.

49. Xristomatiya po istorii filosofii . V 3 ch . -M., 1997 .

50. Shark, falsafasi . M Toshkent , 2006.

51. Shamsutdinov .R O'zbekistonda sovetlarni kuloklashtirish siyosati va uning fojiali okibatlari. - T,: Shark, 2001. - 368 b.

52. Shoniyozov K. O'zbek xalkinig shakillanish jarayoni . -T.: Shark., 2001. - 464 b.

53. Shpengler O.Zakat evropы . -M.: Mыsl , 1993.

54. Ergashev F ., Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan. T.: Akademiya, 1998. -77 b.

55.Yung K. Psixologicheskiye tipы. -M .:1999.

56.Yaspers K. Vsemirnaya istoriya filosofii.-M: 1996.

57.O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavxalar. - Toshkent : Fan, 1995.

58. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. Razvitiye mejnasionalnыx otnosheniy v Uzbekistane - Toshkent: O'zbekistan, 2012.392 6.

59.O'zbekistan Konstitutsiyasi - buyuk kelajagimiz kafolati. Kontitusiya O'zbekistana - garantiya nashego velikogo buduщyego. T., 2009. -420 b

60. Kayumov U. Milliy o'zlik (sosiologik tadqiqot natijalari asosida). // Ijtimoiy fikr . Inson xukuklari , 2001 . №2 (14). -117-119 b.

61.Kur'oni Karim . tarjima va izoxlar muallifi Alouddin Mansur. - Toshkent. Chulpon, 1993.

Сканировано с CamScanner

62. Qaxxorova Sh. Global ma'naviyat - globallashuvinig goyaviy asosi. - Toshkent, 2009.

63.G'arb falsafasi . - Toshkent: Shark,, 2004.

Kafedra mudiri: D. Q. Sayfillayeva

Сканировано с CamScanner